

DEHQONCHILIK VA BOG'DORCHILIK MAVZUSIDAGI XALQ MAQOLLARI ETNIK TEXNOLOGIYALARINING ONA TILI DARSLARIDAGI AHAMIYATI

Yuldasheva Nigina Usmonovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dehqonchilik va bog'dorchilik mavzusidagi xalq maqollari etnik texnologiyalarining ona tili darslaridagi ahamiyati, maqollarning mazmun-mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq maqollari, bog'dorchilik, etnografiya, dehqonchilik, texnologiya, etnik kelib chiqish, boshlang'ich sinf.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается значение этнотехнологий народных пословиц на тему земледелия и огородничества на занятиях по родному языку, взгляды на сущность пословиц.

Ключевые слова: народные пословицы, садоводство, этнография, хозяйство, технология, этническая принадлежность, начальный класс.

ABSTRACT

In this article, the importance of ethnic technologies of folk proverbs on the topic of farming and horticulture in native language classes, views on the essence of proverbs are highlighted.

Key words: folk proverbs, horticulture, ethnography, farming, technology, ethnic origin, primary class.

KIRISH

Xalq og'zaki ijodining noyob durdonalari sanalgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yordardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng

kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in’ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo‘qli, u maqollarda o‘z aksini topmagan bo‘lsin. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ona tili darslarida dehqonchilik va bog‘dorchilik mavzusidagi xalq maqollarining etnik texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

ASOSIY QISM

Xalq maqollarida xalqning azaliy qadriyatlari, milliy an’analari, xulq-atvori shuningdek, azaldan shug‘ullanib kelgan etnik, xalqona kasb-koridan olingan tajribalari hamda etnik texnologiyalari aks etadi. Ayniqsa, dehqonchilik va bog‘dorchilik mavzusidagi xalq maqollarida xalqona tajribalar, etnik texnologiyalari yorqin aks etib, xalq tomonidan kuzatishlarga va yuksak tajribaga asoslangan qatiy xulosalarga kelinganligini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda texnologiya atamasiga izoh berib o‘tsak, Texnologiya termini ikki ma’noda qo‘llanilib:

1. Texnologiya (grekcha: “techno” — hunar, usta va “logos” — fan, ta’lim)

[1] — ilmiy-praktika asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari;

2. Texnologiya (yunoncha techne — san’at, mohirlilik, uquv) — sanoat, qurilish, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan ma’nolarini anglatadi.

Kasb- hunarga oid xalq maqolarida ham xalqning etnik texnologiyalari yorqin namoyon bo‘ladi. Quyida berilgan shu mavzudagi bir necha maqollarning konseptual tahlillarini ko‘rib o‘tsak xalqning etnik texnologiyalari na qadar chuqur mazmun – mohiyatga yuksak tajribaga asoslanganligiga amin bo‘lamiz.

Masalan:

**Dehqon bo‘lsang, roshida bo‘l,
Cho‘pon bo‘lsang — qoshida.
Dehqon bo‘lsang, qoshida bo‘l,
Sipoh bo‘lsang — boshida.
Bog‘bon bo‘lsang, sarxar qil,
Dehqon bo‘lsang, shudgor qil.
Dehqon bo‘lsang, shudgor qil,
Mulla bo‘lsang, takror qil.**

Bu uchala maqol mazmunan bir-biriga juda yaqin bo‘lib, xalqning azaliy kasb-kori sanalgan dehqonchili, chorvachilik, sipohiylik, mullalik kasblarida mohir bo‘lish uchun insonda shakllantirilishi lozim bo‘lgan odatlar tasvirlangan.

Xususan, inson dehqonchilik bilan shug‘ullansa doimiy yerdan ekinlaridan xabardor bo‘lib turishi manusida yerning roshi (Rosh — ekinlarni jo‘yaksiz sug‘organda pollarni bir-biridan ajratish uchun yasalgan marza, ko‘tarma. Buxoro viloyatining bir nechta tumanlarida ko‘p qo‘llaniladi. Rosh bellik, chel deb ham ataladi)da bo‘lish, yoki ikkinchi maqolda aytilgandek qoshida bo‘lish lozim. Sipohiylik (Sipohiy, sipoh (forscha jangchi, askar) —1) Saljuqiylar sultanatida uncha katta bo‘lmagan mulkka egalik qilgan, erkin mulkdor otliq qo‘shin vakili; 2) Usmonli turk imperiyasi armiyasida aniq shartnoma asosida harbiy xizmatni o‘tovchi shaxs) bilan shug‘ullanishda esa qo‘shning boshida bo‘lish lozimligi nazarda tutilgan.

Uchinchi va to‘rtinchchi maqolada esa dehqonchilikda yaxshi hosil olish uchun eng avval yerni yaxshi shudgor qilish lozimligi , bog‘bon esa yaxshi hosil olishi uchun sarxar qilishi lozimligi, mulla esa doimiy o‘qib -o‘rganganlarini takrorlab yurishi kerakligi bayon etilib, kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun esa bularni odat qilish kerakligi qatiyy hukm tarzida ifodalanga

**Dehqon dehqondan qolsa, bir yilda yetar,
Cho‘pon cho‘pondan qolsa, qirq yilda yetar.**

**Bog‘ni qishda ko‘l qil,
Yozda cho‘l qil.**

**Tol eksang, tagini ho‘l qil,
Uzum eksang, tagini cho‘l qil.**

Kurkunak ko‘rmay, tok ochma.

Bir yil tariq eksang, bir yil shudgor qil.

Yuqorida maqolarda ham dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikning sir-asrorlari bayon etilgan, xusuusan, birinchi maqolda aytiladiki dehqon bir yil hosili kam bo‘lsa ham ikkincjhi yil yaxshi hosil olishi mumkin, lekin chorvachilikda bir yil chorva mollari kam bolalasa bu cho‘pon qirq yil orqada qoldi deganidir.

Qolgan maqollarda esa bog‘dorchilikdagi foydali tajribalar bayon etilgan. Bog‘dan yaxshi unumli hosil olish uchun bog‘ni qishda sug‘orib qo‘yish, daraxtlar meva berayotgan vaqt yozda esa suv bermaslik , tol daraxti suvli joyda yaxshi ko‘karishi, uzum, tok esa quruq joyda yaxshi, shirin hosil berishi ifodalangan, shuningdek qishda sovuqdan saqlash maqsadida qumda ko‘mib qo‘yilgan tokni eng maqbul ochish vaqt aytilingan bo‘lib bu vaqt kurkunak (kurkunak - ko‘kqarg‘alar turkumiga mansub, yashil patli, bigiz tumshuqli, jarlarga uya soladigan hasharotxo‘r qush.) kelgan vaqtadir.

XULOSA

Bunday maqollarni xalqning yuksak tajribasi hamda etnik texnologiyalarini boshlang‘ich sinfdan ona tili darslaridagi berilgan topshiriqlar, mashqlar tarkibida keltirish hamda erta yoshdan o‘quvchilarga mustaqil o‘qish, suhbat, hikoya qilib berish

metodlari orqali maqollar mazmun-mohiyatida aks etgan xalqning yuksak tajribasi hamda etnik texnologiyalarini tushuntirilib, singdirib borish ularni etnomadaniy urfatlarga hurmat, vatanga va milliy an'analarga sadoqat, o'z xalqiga muhabbat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirzayev T., Musaqulov A. «O'zbek xalq maqollari» - T.: 2005.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006.
3. Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 600.
4. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami. O'quvuslubiy qo'llanma. Samarqand XTXQTMOHM. -2019
5. Safarova R va b. Alifbe darsligi. - T.: O'qituvchi, 2019 .
6. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik 1-qism. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
7. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. "Sharq" nashriyoti, Toshkent – 2010.